

HAREZMŞAHLAR VE ETRAFINDAKİ DÜNYA

Editörler

Prof. Dr. Oktay BOZAN

Doç. Dr. Mutlu SAYLIK

Dr. Öğr. Üyesi Arafat YAZ

Dr. Öğr. Üyesi Abdusselam ERTEKİN



E K İ N

Basım Yayın Dağıtım

2024

© 2024 Ekin Yayınevi

Tüm hakları mahfuzdur. Bu kitabın tamamı ya da bir kısmı 5846 Sayılı Yasa'nın hükümlerine göre, kitabı yayınlayan yayınevinin izni olmaksızın elektronik, mekanik, fotokopi ya da herhangi bir kayıt sistemi ile çoğaltılamaz, özetlenemez, yayınlanamaz, depolanamaz.

Sertifika No: 48743

ISBN: 978-625-6637-53-5

Sayfa Düzeni / Kapak Tasarımı: Vildan YAVUZ

Baskı ve Cilt:

Stüdyo Star Ajans Ltd. Şti.

Alaaddinbey Mah. 634. Sk.

NİLTİM Ayaz Plaza No: 24

Tel. (0224) 249 33 20

Sertifika No: 48334

Baskı Tarihi: Şubat 2024

EKİN Basım Yayın Dağıtım

Şehreküstü Mah. Cumhuriyet Cad.

Durak Sk. No: 2 Osmangazi / BURSA

Tel .: (0.224) 220 16 72 - 223 04 37

Fax.: (0.224) 223 41 12

e-mail: info@ekinyayinevi.com

www.ekinkitap.com

100

TÜRKİYE CUMHURİYETİ'NİN YÜZÜNCÜ YILI



Her Yazar Kendi Makalesinden Sorumludur.

Silvan Kaymakamlığı ve Silvan Belediyesinin Katkılarıyla Basılmıştır.

SULTON JALOLIDDIN XORAZMSHOHNING HINDISTON HUDUDLARIDAGI FAOLIYATI XUSUSIDA

Latipov Jasur LAZIZ O'G'LI*
Shodiyeva Shahlo SOLIYEVNA**

ANNOTATSIYA

O'rta asrlarda Hindiston mamlakatining xalqaro munosabatlardagi o'rni muhim strategik ahamiyat kasb etgan. Ushbu mamlakat gohida siyoiy boshpana, gohida esa boy o'ljalarni qo'lga kiritish mumkin bo'lgan hudud sifatida o'zidan shimolda bo'lgan hududlarning hukmdorlari e'tiborini doim o'ziga qaratib kelgan. G'aznaviylar, g'uriylar kabi Sharqning yirik sulolalari vakillari tomonidan bo'ysundirilib, aholisi islom diniga kiritilgan Shimoliy Hindiston esa XI-XII asrlardayoq islom madaniyatining bir qismiga aylanib ulgurgan edi. Ushbu hududning keyingi davrlarda musulmon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida saqlanib qolishi ushbu maqolada e'tirof etilgan.

XIII asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqalarida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar silsilasi Shimoliy Hindiston hududlarida ham ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy holatning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Movarounnahr hududida siyosiy ustunlikning Qoraxitoylar davlatidan Xorazmshohlar imperiyasi tomoniga o'tishi, keyinroq esa Mo'g'ullar imperiyasining istilosi natijasida Shimoliy Hindiston hududlariga ko'p miqdorda siyosiy qochoqlar, asirlar va qulga aylantirilgan harbiylar kirib keladi. Ushbu voqealarning kulminatsion nuqtasi esa Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlaridan Sind daryosi bo'ylarida 1221-yili mag'lubiyatga uchragan Xorazmshoh Sulton Jaloliddin Manguberdining Hindiston mamlakatiga kirib kelishidir.

Ushbu maqolada Sind daryosi bo'yidagi jang oqibatlari, Sulton Jaloliddinning Hindistonga kirib kelishi arafasida hududda mavjud siyosiy vaziyat, Xorazmshohning Dehli sultonligi va uning atrofidagi boshqa kichik shohliklar bilan ziddiyatli aloqalari, bu aloqalar natijasida yuzaga kelgan harbiy

* Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

** Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

mojarolar va ularning oqibatlarini, shuningdek, Jaloliddin Manguberding Hindistonni tark etishiga ta'sir qilgan omillar kabi masalalar ilmiy tahlil qilingan.

ON THE ACTIVITIES OF SULTAN JALALIDDIN KHORAZMSHAH IN THE TERRITORIES OF INDIA

ANNOTATION

In the Middle Ages, India's role in international relations gained strategic importance. This country always attracted the attention of the rulers in the north part of the region sometimes as a refuge, and sometimes as an area where it is possible to capture rich treasure. North India, which was subjugated by representatives of the great dynasties of the East, such as the Ghaznavids and the Ghurians, and whose inhabitants were converted to Islam, had already become a part of Islamic culture in the 11th-12th centuries. This article is about the preservation of this region as one of the important centers of Muslim civilization in later times.

The political changes that took place in the regions of Central Asia at the beginning of the 13th century had an impact on the changes in the socio-economic and political situation in the regions of North India. In particular, as a result of the transfer of political superiority in the Movarunnahr region from the Karakhita state to the Khorezmshah empire, and later as a result of the invasion of the Mongol empire, a large number of political refugees, captives and enslaved soldiers entered the territories of North India. The culminating point of these events is the entry of Khorezmshah Sultan Jalaluddin Manguberdi, who was defeated by the Mongol forces led by Genghis Khan on the banks of the Sind River in 1221.

In this article, the consequences of the battle on the Sindh River, the political situation in the region on the eve of Sultan Jalaluddin's entry into India, the conflicting relations of Khorezm Shah with the Delhi Sultanate and other small kingdoms around it, the military conflicts that arose as a result of these relations and their consequences, as well as Jalaluddin Manguberdi's invasion of India issues such as the factors that influenced the abandonment were scientifically analyzed.

KIRISH

Shimoliy Hindiston uzoq asrlar mobaynida turli millat va dinga mansub bosqinchilar uchun darvoza vazifasini o'tab kelgan edi. Ushbu urushlar har xil bahonalarga asoslanib amalga oshirilsa ham, aslini olganda bosqinchilarning maqsadi boy o'ljalarga ega chiqish yoki boshqa biror manfaatni qondirish bo'lgan. XI asrdan boshlab Shimoliy Hindistonga O'rta Sharqning musulmon hukmdorlari tobora ko'proq xavf sola boshladilar. Tashqi urushlar doim taraqqiyotga to'sqinlik qilib kelgan bo'lsa-da, Hindistonning strategik ahamiyatiga zarracha putur yetmaydi. Aksincha, mintaqa borgan sari xalqaro munosabatlarda muhim va hal qiluvchi rol o'ynay boshlagan edi.

Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mintaqalarida XIII asr boshlarida qoraxitoylar, g'uriylar, xorazmshohlar o'rtasida xalqaro gegemonlik uchun kechgan kurash tobora kuchayadi. Ushbu kurashda Sulton Muhammad Xorazmshoh (1200-1220 yy.) o'z raqiblarini uzil-kesil yakson etadi. Jumladan, 1206-yilda Shihobiddin G'uriy (1203-1206 yy.) ismoiliy qotillar tomonidan o'ldirilgach, uning davlati parchalana boshlaydi. O'sha yildan boshlab G'azna va Zobulistonda uning amirlaridan Tojiddin Yulduz, Lohur va Mo'ltonda esa Nosiriddin Qubacha (1206-1227 yy.) o'rnashib olib, undan janubroqdagi hududlar Qutbiddin Oybek (1206-1211 yy.) qo'liga o'tadi va uning mustaqil siyosat yurita boshlashi bilan Dehli sultonligi tashkil topgan¹. Xorazmshohlar G'uriylar boshqaruviga 1215-yili uzil-kesil barham beradilar. Tojiddin Yulduz esa o'sha yili Qutbiddin Oybekning davomchisi bo'lgan Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish (1211-1236 yy.) tomonidan mag'lub etilib, asirga olingan². Sulton Muhammad qoraxitoylarni ham shiddatli tarzda Movarounnahrda quvib chiqargach, 1210-yilgi jangda ularga o'nnglanmas zarba beradi. Tarixiy adabiyotlarning guvohlik berishicha, asirga olinganlarning bir qismi qul qilib sotib yuborilib, ushbu mamluklarning ba'zilari keyinroq Dehli sultonligida muhim lavozimlarni egallaganlar³. Ayni shu davrda Hindistonga borib, o'sha yerda ijod qilgan tarixchi Juzjoniy o'z asarida ularning ba'zilarini tilga olib o'tgan edi⁴. Buni qarangki, Xorazmshohlar davlatining o'zi yaqin orada Chingizxon (1206-1227 yy.) boshliq mo'g'ul istilochilari uchun tayyor o'ljaga aylandi.

¹ Qazwini, Hamdu'llah Mustawfi. The Ta'rih-i guzida. Comp. by E.G. Browne. Part 2. – Leyden: E.J. BRILL, Imprimerie Orientale, 1913. – P. 85.

² Juzjani, Minhaj al-din. Tabakat-i Nasiri. In 2 volumes. Tr. by H.G. z. P.608.

³ Biran M. The empire of the Qara Khitai in Eurasian history: between China and the Islamic World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – P 86.

⁴ Juzjani, Minhaj al-din. Tabakat-i Nasiri. In 2 volumes. Tr. by H.G. z. – P. 757-758.

Hinistonda harbiy qullarning yuqori lavozimlarni egallashi ajablanarli hol emasdi. Chunki, dastlabki Dehli sultonlarining o‘zi ham yoshligida qul qilinib, sotib yuborilgan asirlardan edilar. Masalan, Qutbiddin Oybek aslida markaziy osiyolik g‘ulomlardan bo‘lib, bir vaqtlar g‘uriy sultonlarga xizmat qilgan⁵. Shamsiddin Elutmish esa Turkistonda, zodagonlar oilasida tug‘ilib, taqdir taqozosi bilan dastlab Buxoroda, keyinroq G‘aznada g‘uriy sultonlarga qul sifatida sotib yuboriladi. Keyinroq u Qutbiddin Oybek xizmatiga o‘tib, uning qiziga uylangan va sulton o‘limidan so‘ng harbiy sarkardalar, ehtimolki, mamluk jangchilarning qo‘llab-quvvatlashi bilan Dehli sultonligi taxtini egallagan⁶.

Hindiston bu davrda Xorazmshohlar davlatiga xizmat qiluvchi amaldorlar va sarkardalarni ohanrabodek o‘ziga tortardi. Ayniqsa, siyosiy kurashlarda yengilganlar beixtiyor janubga tomon yo‘l olardilar. Buning sababi qochishga boshqa hududning yo‘qligida emas. Shimoliy Hindiston Shihobiddin G‘uriy davridayoq ichki kurashlar va beboshliklarning markaziga aylanib ulgurgan edi⁷. Bu urushlar G‘uriylar davlati parchalangach, yanada shiddatli tus olgan. Natijada kichik-kichik hokimliklarga bo‘linib ketgan Sind havzasi va uning atrofidagi hududlarni osongina qo‘lga kiritish istagida bo‘lganlar soni oshib boravergan. Markaziy osiyoliklarning Shimoliy Hindistonga “tashrif” lari salmog‘i mo‘g‘ullar bosqini davrida yanada ortdi. Qochqinlar, tabiiyki, jon saqlash istagidagilar yoki urushda yengilganlardan iborat edi.

Manbalarning guvohlik berishicha, Sulton Muhammadning o‘zi ham dastlab Hindistonga qochmoqchi bo‘ladi. Ammo, o‘g‘li Rukniddinning Iroqdan kelgan elchisi uning o‘z qarorini o‘zgartirishiga erishgan⁸. Juvayniyning yozishicha, Xorazmning so‘nggi sultoni Jaloliddin Manguberdi (1220-1231 yy.) Urganchdan G‘aznaga yo‘l olgan vaqtda uning sarkardalaridan Amin Malik (ba‘zi manbalarda Xon Malik) Hindiston hududlarida, Ag‘roq Malik esa Peshovarda bo‘lgan⁹. Ular bilan hamkorlikda urush olib borilsa, Xorazm qo‘shinlari yengilmas kuchga aylanar edi. Ammo, vaziyat tezda o‘zgarib,

⁵ Juzjani, Minhaj al-din. Tabakat-i Nasiri. In 2 volumes. Tr. by H.G. z. – P. 513-515.

⁶ Juzjani, Minhaj al-din. Tabakat-i Nasiri. In 2 volumes. Tr. by H.G. z. – P. 599-606

⁷ Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Та’рих (“Полный свод истории”). Избранные отрывки. Пер. П. Г. Булгакова. – Ташкент – Цюрих, 2005. – С.311; Qazwini, Hamdu’llah Mustawfi. The Ta’rikh-i guzida. Comp. by E.G. Browne. Part 2. – Leyden: E.J. BRILL, Imprimerie Orientale, 1913. – P. 84.

⁸ Улугбек Мирзо. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан Б.Ахмедов ва бошқ. тарж. – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 136.

⁹ Juvaini, ‘Ala-ad-din ‘Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachusetts: Harvard University Press, 1958. – P. 463

Parvondagi g'alabadan so'ng qo'shinlari tarqalib ketgan Jaloliddin dushmanga qarshi tura olmasligini yaxshi anglagan va Chingizxon G'aznaga bostirib kelishidan 15 kun ilgari janubga, Sind daryosi tomon yo'l olgan¹⁰. G'aznadan 50 km masofadagi Gardiz shahri yaqinida mo'g'ullarning hirovulini yenggan sarkarda yana chekinishni davom ettiradi¹¹. Sind daryosi bo'yidagi jang (1221-yilning noyabr oyi) Xorazm qo'shinining to'la yakson etilishi va Jaloliddinning sanoqli askarlari bilan mo'g'ullardan qochib, omon qolishga muvaffaq bo'lishi bilan yakunlandi. Shu voqeadan so'ng Xorazmshohning Hindistondagi ikki yillik faoliyati boshlanadi.

Ulug'bekning yozishicha, Jaloliddin chekinish chog'ida o'zining ulkan xazinasini Sind suviga to'kadi. Chingizxon esa daryo bo'yida chodir tikib, oltinlar va qimmatbaho toshlarni suv tubidan olib chiqishga buyruq bergan¹². Fikrimizcha, bu atayin mo'g'ullarning ta'qibidan qutulish uchun qilingan tadbir edi. Bu vaqtda omon qolgan xorazmliklar soni asta-sekin oshib bordi. Jaloliddin dastlab tevarak-atrofdagi mahalliy aholi ustiga yurish qilib, ulardan otlar va boshqa zaruriy ashyolarni tortib oladi. Uning askarlari soni 120 kishiga yetgach, unga qarshi jo'natilgan 2-3 ming (ba'zi manbalarda 4 ming, hattoki, 40 ming deb ham ko'rsatiladi) kishilik qo'shin mag'lub etilgan¹³. Keyin Jaloliddin 500 askari bilan Jud (Tuz cho'qqi) tog'i yaqinidagi mavzeda Shatra ranasining 6 ming kishilik qo'shinini mag'lub etib, uning o'zini o'ldiradi. Ushbu g'alabadan keyin Xorazmshoh qo'l ostidagi askarlar soni 3-4 ming kishiga yetgan¹⁴. Fikrimizcha, Jaloliddin tarafdorlarining bu qadar shiddat bilan ko'payib borishi Hindistondagi markaziy osiyoliklarning salmog'iga bog'liq edi.

Xorazmliklar qudratining oshib borishi mahalliy hukmdorlarni, ayniqsa, Sind, Lohur va Mo'lton sultoni Nosiriddin Qubachani tashvishga solardi. Buning ustiga uning Nandan va Sakundagi noibi Qamariddin Karmoniy tez

¹⁰ Мирхонднинг “Равзат ус-сафо” асарида Жалололдин Мангуберди зикри. – Т.: “Фан” нашриёти, 1999. – Б. 15

¹¹ Ан-Насавий, Шихобиддин Мухаммад. Султон Жалололдин Мангуберди ҳаёти / Матёқубов тарж. – Т.: “Ўзбекистон” – “Ёзувчи”, 1999. – Б. 151.

¹² Улугбек Мирзо. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқ. тарж. – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 184.

¹³ Мирхонднинг “Равзат ус-сафо” асарида Жалололдин Мангуберди зикри. – Т.: “Фан” нашриёти, 1999. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, кн2. Пер. О.И. Смирновой.-М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – С. 237; The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachusetts: Harvard University Press, 1958. – P 412.

¹⁴ Ан-Насавий, Шихобиддин Мухаммад. Султон Жалололдин Мангуберди ҳаёти / Матёқубов тарж. – Т.: “Ўзбекистон” – “Ёзувчи”, 1999. – Б.157; Juvaini, ‘Ala-ad-din ‘Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachusetts: Harvard University Press, 1958. – P 413.

orada Jaloliddin hokimiyatiga bo'ysunishini ma'lum qilgan¹⁵. Ayni shu vaqtda zimmasiga Jaloliddinni topib, o'ldirish vazifasi yuklangan jaloyir qabilasidan bo'lgan Bala No'yon boshchiligidagi 20 ming kishilik mo'g'ul qo'shini Shimoliy Hindistonga bostirib kirgan¹⁶. Jaloliddin esa, ehtimol, shu voqea tufayli Shamsiddin Eltutmish bilan mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzish maqsadida Dehli tomon yuradi va unga elchi jo'natadi. Ammo, bu taklif Eltutmish tomonidan yaxshi qarshi olinmagan va elchi o'ldirilib, Jaloliddin ortiga qaytgan¹⁷. Bu orada mo'g'ullar ham talonchiliklarga yakun yasab, izlariga qaytadilar.

Chingizxon Jaloliddinning mo'g'ullar uchun yangidan-yangi muammolar tug'dirishi mumkinligini yaxshi anglardi. Shuning uchun ham u Jaloliddinni har tomondan siquvga olishga harakat qiladi. Chunonchi, Hindistonga yuqorida eslatilgan mo'g'ul qo'shini jo'natilib, O'qtoyga esa G'azna shahrini vayron qilish buyurilgan¹⁸. Albatta, ushbu shahar Jaloliddinning qaytadan kuchli qo'shin tuzishi uchun ahamiyatli edi. Rashididdinning yozishicha, Chingizxon, hattoki, Hindiston orqali Tangut davlatiga o'tib ketmoqchi bo'lgan¹⁹. Biroq, issiq iqlim hamda Xitoyga tomon olib chiqadigan qulay yo'lning mavjud emasligi tufayli u kelgan yo'lidan ortiga qaytadi. "Yuan shi" yilnomasiga ko'ra, mo'g'ullar Hindistonda "szyuye-duan" ismli gapiruvchi maxluqni uchratadilar. Amaldor Yeluy Chutsay bunga "yomonlik alomati" deya baho bergach, ortga qaytilgan²⁰. Fikrimizcha, bu yangidan-yangi qirg'inlar va urushlarning oldini olish uchun Yeluy Chutsay tomonidan atayin uyushtirilgan va Chingizxon bu safsataga ishonitirilgan. Lekin, mo'g'ul qo'shini Hindistonni yetarlicha talon-taroj qildilar. Do'rboy Doqshin va Bala no'yon askarlari Qamariddin Karmoniy qo'l ostidagi Nandan shahrida aholini qirg'in qilib, Mo'ltan va Lohurda ham

¹⁵ Ан-Насавий, Шихобиддин Мухаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти / Матёқубов тарж. – Т.: "Ўзбекистон" – "Ёзувчи", 1999. – Б.132.

¹⁶ The Secret History of the Mongols. Tr. F.V. Cleaves. – Cambridge and London: Harvard University Press, 1982. – P. 204

¹⁷ Juvaini, 'Ala-ad-din 'Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachusetts: Harvard University Press, 1958. – P 413-414.

¹⁸ Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқ. тарж. – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 191.

¹⁹ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, кн2. Пер. О.И. Смирновой.-М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – С 225.

²⁰ Биография Елюй Чу-цая в "Юань ши" // Китайский источник о первых монгольских ханах. – М.: Издательства "Наука", 1965. – С.186.

turli vayronagarchiliklarni amalga oshirganlar²¹. Ammo, ular Hindistonda Jaloliddinning changini ham topa olmadilar.

Hindistonda Qubacha bilan xorazmliklar o'rtasidagi munosabatlar dastlab nizoli emasdi. Lekin, ko'p o'tmay ikki tomon urush holatiga kelib qoldi. Buning, albatta, muhim sabablari bor edi. Avvalo, Qamariddin Karmoniyning Jaloliddinga bo'ysunishi Qubachani g'azablantirardi. Bundan tashqari, xorazmliklar qo'shini soni tobora oshib boraveradi. Chunki, Jaloliddinning Hindistondagi muvaffaqiyatlari uning Iroqda hukmronlik qilayotgan ukasi G'iyoidin Pirshoh xizmatidagi amirlar va sarkardalarni ham o'ziga jalb qiladi. Ulardan ba'zilari G'iyosidinni tark etib, Jaloliddin xizmatiga kirganlar²². Kelib chiqishi qoraxitoylardan bo'lgan sarkarda Baroq Hojib ham xuddi shu vaqtda Hindistonga tomon yo'l olgan bo'lib, Jaloliddin (yoki katta ehtimol bilan Baroq Hojibga yaqin qoraxitoy sarkardalar xizmat qilgan Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish) ning xizmatiga kirishni mo'ljallagan edi. Lekin, u Kermon viloyatini o'ziga bo'ysundirib, Hindistonga safaridan voz kechgan²³. Iroqdan kelganlar hisobiga Jaloliddin qo'shini 10 ming kishini tashkil etdi. Ushbu migratsiya jarayoni, tabiiyki, Qubacha hokimiyatiga katta xavf solar edi.

Nasaviyning yozishicha, Sind jangida mo'g'ullar tomonidan o'ldirilgan sarkarda Amin Malikning o'g'li Qizilxon hamda bir vaqtlar G'aznada Jaloliddinning vaziri bo'lgan va endilikda Qubacha xizmatidagi Shamsulmulk Shihobiddin Alpnig qatl etilishi ikki o'rtada munosabatlarning ochiq-oydin dushmanlik tusini olishiga sabab bo'ladi²⁴. Boshqa mualliflar fikricha, Jaloliddin Qubachaning raqibi bo'lgan ko'karlar rojasi Sangunning qiziga uylanib, u bilan ittifoq tuzganligi uchun urush kelib chiqqan²⁵. Xorazmshoh dastlab Kalor va Tarnuj qal'alarini bo'ysundirib, vayron qilib tashlaydi. Shaharlar talon-taroj qilinadi. Bu esa munosabatlarni yanada keskinlashtirdi. Jaloliddinning kuchayib, Hindistonga egalik qilishi Shamsiddin Eltutmishni

²¹ Juvaini, 'Ala-ad-din 'Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachuset: Harvard University Press, 1958. – P 141-142.

²² Ан-Насавий, Шихобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти / Мағқубов тарж. – Т.: “Ўзбекистон” – “Ёзувчи”, 1999. – Б. 161.

²³ Biran M. The empire of the Qara Khitai in Eurasian history: between China and the Islamic World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – P 88.

²⁴ Ан-Насавий, Шихобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти / Мағқубов тарж. – Т.: “Ўзбекистон” – “Ёзувчи”, 1999. – Б. 160-161

²⁵ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, кн2. Пер. О.И. Смирновой.-М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – С.238; Juvaini, 'Ala-ad-din 'Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachuset: Harvard University Press, 1958. –P.414; Мирхондининг “Равзат ус-сафо” асариди Жалолиддин Мангуберди зикри. – Т.: “Фан” нашриёти, 1999. – Б.19.

ham tashvishlantirardi. Shuning uchun u Qubacha ixtiyoriga bo'ljak hujum uchun yordamchi qo'shin jo'natgan²⁶. Sind bo'yida bo'lgan jangda 20 ming kishilik Qubacha armiyasi 7 ming askar bilan jo'natilgan sarkarda O'zbek Toiy tomonidan tor-mor etildi. Qubacha dastlab daryodagi orollardan biriga, keyin esa Mo'ltonga qochib, yashiringan²⁷. Endilikda xorazmliklarning hujumlarini to'xtatish imkonsiz edi.

Tez orada Qubacha xizmatida bo'lganlar yoppasiga Jaloliddin tomoniga o'ta boshladilar. Masalan, Muhammad Xorazmshohning bir vaqtlar Hindistonga kelib qolib, Qubacha xizmatiga kirgan qarindoshi Tojiddin Bilgategin Uchcha shahrini tark etib, Jaloliddinga bo'ysunishini e'lon qilgan²⁸. Shuningdek, Nasaviy bir o'rinda Alamut ismoiliylari vakillarining ham Jaloliddin Hindistonda yurgan chog'larda unga xizmat qilganliklari haqida ishora qiladi²⁹. Ammo, bu to'g'ridagi batafsil ma'lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi.

Xorazmshoh Jud tog'iga qaytish chog'ida Pasram (hozirgi Pasrur mavzesi) shahrida qirg'in uyushtirdi³⁰. Bizning fikrimizcha, ayni shu davrda Shimoliy Hindistonga mo'g'ullarning yana bir harbiy yurishi amalga oshirilgan. Juzjoni 1224-yilda mo'g'ullarning Mo'ltinni qamal qilganliklari haqida yozadi³¹. Boshqa manbalarda bu yurish haqida ma'lumot berilmagan. Faqatgina Ulug'bek Chig'atoyning Mo'g'ulistonga qaytish oldidan Makron, Lohur va boshqa ba'zi hududlarga hujumlar uyushtirganligi haqida eslatadi³². Fikrimizcha, Mo'ltinni qamal qilgan qo'shin katta ehtimol bilan Chig'atoy tomonidan yuborilgan. Shu vaqtda Jaloliddin urushni tugatib, egallangan hududlarni tashlab, Mo'ltonga qaytish uchun Qubachadan o'lpon (na'l baho) talab qilgan³³. Ehtimol, Jaloliddin mo'g'ullarni yakson qilish uchun to'satdan Qubacha bilan urushga yakun yasagan bo'lishi mumkin. Qubacha bu shartni

²⁶ Ан-Насавий, Шихобиддин Мухаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди хаёти / Матёқубов тарж. – Т.: “Ўзбекистон” – “Ёзувчи”, 1999. – Б.161

²⁷ Juvaini, 'Ala-ad-din 'Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachusetts: Harvard University Press, 1958. – P 414-415.

²⁸ Juzjani, Minhaj al-din. Tabakat-i Nasiri. In 2 volumes. Tr. by H.G. z. – P. 199-200.

²⁹ Ан-Насавий, Шихобиддин Мухаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди хаёти / Матёқубов тарж. – Т.: “Ўзбекистон” – “Ёзувчи”, 1999. – Б.370.

³⁰ Juvaini, 'Ala-ad-din 'Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachusetts: Harvard University Press, 1958. – P. 415.

³¹ Juzjani, Minhaj al-din. Tabakat-i Nasiri. In 2 volumes. Tr. by H.G. z. – P. 534-539.

³² Улугбек Мирзо. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан Б.Ахмедов ва бошқ. тарж. – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 192.

³³ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, кн2. Пер. О.И. Смирновой.-М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – С.238.

qabul qilmadi va urush davom etaverdi. Mo‘g‘ullar esa ko‘p o‘tmay ortga qaytadilar.

Jaloliddin navbatdagi jangda yana Qubachani mag‘lub etdi. Xorazmliklar dastlab Mo‘ltonni, keyin Uchcha shahrini bo‘ysundirganlar³⁴. Jaloliddin Uchcha shahrini yoqib yuborishni buyuradi va Sadusan qal‘asi tomon yurish qililib, ushbu qal‘aning lashbarboshisi Lochin Xitoy (qoraxitoy) jangda o‘dirildi. Qal‘a noibi Faxruddin esa taslim bo‘ladi. Keyin birin-ketin Deval va Damril qal‘alari qo‘lga kiritilib, Gujarot o‘lkasining markazi Nahrval shahrini bo‘ysundirish uchun sarkarda Xos Xon jo‘natilgan edi³⁵. Shundan so‘ng Xatisar qal‘asi hokimi taslim etiladi. Xatisar hokimining Shamsiddin Eltutmishga qaramligi Dehli sultonligining neytralitetiga o‘z-o‘zidan barham berardi. Natijada Eltutmish 30 ming otliq, 100 ming piyoda askar va 300 fil bilan Jaloliddinga qarshi yurish boshlaydi. Jang avvalidayoq sarkarda O‘zbek Toiy Dehli qo‘shinlarining hirovulini yenggach, Shamsiddin Eltutmish bilan ikki o‘rtada sulh tuzilgan va ushbu urushga yakun yasalgan³⁶. Lekin, Hindistondagi kelishmovchiliklar bu bilan tugab qolmadi. Tez orada mahalliy hukmdorlar xorazmliklarga qarshi yagona ittifoqqa birlasha boshlaydilar. Bu vaziyatda Hindistonda qolish Jaloliddin uchun faqatgina talafot keltirardi.

Xuddi shu vaqtda Eron va Iroqdagi siyosiy ahvol Jaloliddin va uning qo‘shinini o‘ziga jalb qila boshlagan. Zero, ayni chog‘da Iroqda hukmronlik qilayotgan G‘iyosiddin Pirshohning hokimiyati zaif bo‘lib, Kermon viloyatini egallab olgan Baroq Hojib yuborgan elchilar ham, ehtimolki, Jaloliddinni ukasidan hokimiyatni tortib olishga undaganlar³⁷. Sarkardalar Iroq tomon borishni talab qila boshlaydilar. Ba‘zi yaqinlari Eltutmish tomonga o‘tib ketishni boshlagan Jaloliddin uchun ham bu qulay taklif edi³⁸. Shuning uchun u o‘z qo‘shinini olib, Sind vodiysi orqali Seiston tomon yo‘l olgan.

Jaloliddin Hindistonda ikki yil hukmronlik qildi. Bu davr mobaynida u Nosiriddin Qubacha, Shamsiddin Eltutmish, ko‘karlar hamda rajputlarga qarashli hududlarni egallab, hukmronligini o‘rnatdi va o‘z nomidan tangalar

³⁴ Juvaini, ‘Ala-ad-din ‘Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachusetts: Harvard University Press, 1958. – P. 415.

³⁵ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, кн2. Пер. О.И. Смирновой.-М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – С. 238.

³⁶ Ан-Насавий, Шихобиддин Мухаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти / Матёқубов тарж. – Т.: “Ўзбекистон” – “Ёзувчи”, 1999. – Б.164-165

³⁷ Juvaini, ‘Ala-ad-din ‘Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachusetts: Harvard University Press, 1958. – P.417

³⁸ Ан-Насавий, Шихобиддин Мухаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти / Матёқубов тарж. – Т.: “Ўзбекистон” – “Ёзувчи”, 1999. – Б.165.

zarb ettirdi ³⁹. Shuningdek, u Deval shahrida ibodatxona o'rnida masjidni jome qurdirgan ⁴⁰. Ammo, ayni vaziyat Hindistonni tark etishni taqozo qilardi. Jaloliddin egallangan hududlarni boshqarish uchun O'zbek Toiy hamda Vafo Malik (asl ismi Hasan Qarluq) ismli sarkardalarni qoldirib ketadi. Nasaviyning yozishicha, Vafo Malik keyinchalik Eltutmishning xizmatiga kiradi. Sarkarda O'zbek Toiy esa Shimoliy Hindistondagi ushbu viloyatlarni 1230-yilda Dehli sultonligiga boy berib, Iroqqa tomon yo'l olgan ⁴¹. Ushbu voqeadan bir yil o'tgach, Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi hozirgi Ozarbayjon hududida kurd qaroqchilari tomonidan o'ldirildi.

Hindistonda esa o'zaro urushlar davom etavergan. 1227-yilda Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish Uchcha va Bhakar shaharlarini egalladi. Hukmronlikdan butunlay mosuvo bo'lgan Nosiriddin Qubacha esa o'zini Sind daryosiga tashlab, o'z joniga qasd qilgan ⁴².

Shamsiddin Eltutmish Dehli sultonligini 1236-yilga qadar boshqardi. Uning vorisi Rukniddin Feruzshoh (1236-1237 yy.) ning hukmronligiga bir yildan keyin barham berilib, Eltutmishning qizi malika Roziya (1237-1240 yy.) mamluk sarkardalarning qo'llab-quvvatlashi bilan hokimiyat tepasiga kelgan ⁴³. 1290-yildan boshlab Dehli sultonligida Xiljiylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Ular mo'g'ullar istilosi davrida Hindistonga kelib qolgan edilar.

Xulosa sifatida ayta olamizki, XIII asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo hamda Shimoliy Hindistonda yuz bergan voqealar o'zaro bog'liq tarzda rivojlanib borgan. Hududlar orasidagi uzoq masofaga qaramay, o'lkalarning tarixiy taqdiri yagona makonda bo'lgani kabi xususiyat kasb etdi. Markaziy osiyoliklarning faoliyati Hindistonning markaziy mintaqalariga qadar o'ziga xos ta'sir effektiga ega bo'lib qolish bilan birgalikda boshqa davrlardan farqli o'laroq sezilarli darajada yaqqol ko'zga tashlanadi. Hal qiluvchi va qaltis pallalarda jang maydonining narigi tomonidan turib raqibga tinchlik qo'lini cho'za olgan Jaloliddin Manguberdi hamda Shamsiddin Eltutmishlarning ulug'vorligi esa barcha zamonlarda o'rnak uchun yaxshi namuna bo'la oladi.

³⁹ Бунятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231). – М.: Издательства “Наука”, 1986. – С. 109

⁴⁰ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, кн2. Пер. О.И. Смирновой.-М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – С. 238.

⁴¹ Ан-Насавий, Шихобиддин Мухаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди хаёти / Матёқубов тарж. – Т.: “Ўзбекистон” – “Ёзувчи”, 1999. – Б.375-376

⁴² Juzjani, Minhaj al-din. Tabakat-i Nasiri. In 2 volumes. Tr. by H.G. z. – P. 544

⁴³ Biran M. The empire of the Qara Khitai in Eurasian history: between China and the Islamic World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – P 167.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. Biran M. The empire of the Qara Khitai in Eurasian history: between China and the Islamic World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 280 p.
2. Juvaini, 'Ala-ad-din 'Ata-Malik. The History of the World-Conqueror. In 2 volumes. Tr. by J.A. Boyle. – Cambridge and Massachusetts: Harvard University Press, 1958. – 763 p.
3. Juzjani, Minhaj al-din. Tabakat-i Nasiri. In 2 volumes. Tr. by H.G. z
4. Qazwini, Hamdu'llah Mustawfi. The Ta'rikh-i guzida. Comp. by E.G. Browne. Part 2. – Leyden: E.J. BRILL, Imprimerie Orientale, 1913. – 237 p.
5. The Secret History of the Mongols. Tr. F.V. Cleaves. – Cambridge and London: Harvard University Press, 1982. – 277 p.
6. Ан-Насавий, Шихобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти / Матёқубов тарж. – Т.: "Ўзбекистон" – "Ёзувчи", 1999. – 432 б. (An-Nasaviy, Shihobiddin Muhammad. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti / Matyoqubov tarj. – Т.: "O'zbekiston" – "Yozuvchi", 1999. – 432 b.)
7. Биография Елюй Чу-цяя в "Юань ши" // Китайский источник о первых монгольских ханах. – М.: Издательства "Наука", 1965. – С.185-201. (Biografiya Yeluy Chu-saya v "Yuan shi" // Kitayskiy istochnik o pervix mongolskix xanax. – М.: Izdatelstva "Nauka", 1965. – S.185-201)
8. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231). – М.: Издательства "Наука", 1986. – 248 с. (Buniyatov Z. M. Gosudarstvo Xorezmshahov – Anushteginidov. 1097 – 1231. – М.: Nauka, 1986. – 252 s.)
9. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Та'рих ("Полный свод истории"). Избранные отрывки. Пер. П. Г. Булгакова. – Ташкент – Цюрих, 2005. – 596 с. (Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-Ta'rix ("Polniy svod istorii") Izbranniye otrivki. Perevod s arabskogo yazika, primechaniya i komentarii P. G. Bulgakova. Dopolneniya k perevodu, primechaniyam i komentariyam, vvedeniye i ukazateli Sh. S. Kamoliddina. – Tashkent – Syurix, 2005. – 232 s)
10. Мирхонднинг "Равзат ус-сафо" асарида Жалолиддин Мангуберди зикри. – Т.: "Фан" нашриёти, 1999. – 32 б. (Mirxondning "Ravzat us-safo" asarida Jaloliddin Manguberdi zikri. – Т.: "Fan" nashriyoti, 1999. – 32 b.)
11. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, кн2. Пер. О.И. Смирновой.-М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – 282 с. (Rashid-ad-din. Sbornik letopisey. T.1, kn2. Per. O.I. Smirnovoy.-M.-L.: Izdatelstvo Akademii Nauk SSSR, 1952. – 282 s)
12. Улугбек Мирзо. Тўрт улус тарихи / Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқ. тарж. – Т.: Чўлпон, 1994. – 352 б. (Ulug'bek Mirzo. To'rt ulus tarixi / Fors tilidan B.Ahmedov va boshq. tarj. – Т.: Cho'lpon, 1994. – 352 b.)

İÇİNDEKİLER

TAKDİM	v
TAKDİM	vii
TAKDİM	ix
HAREZM COĞRAFYASI VE ADININ MENŞEİ	1
<i>Mustafa KÖKSAL</i>	
ERKEN İSLAMÎ DÖNEMDE (93-205/712-821) HÂREZM'DE YEREL YÖNETİM	15
<i>Aykut ÖZBAYRAKTAR</i>	
ALTUNTAŞOĞLU HARUN'UN GAZNELİ POLİTİKASI VE SELÇUKLULAR	31
<i>Cihan PİYADEOĞLU</i>	
XORAZMSHOHLAR VA DASHT KO'CHMANCHI QABILALARINING TASHQI ALOQALARI TARIXI SAHIFASIDAN AYRIM MULOHAZALAR	43
<i>Yusupov Axmedjon SHONAZAROVICH</i>	
HÂREZMŞÂHLAR-GÛRLULAR SİYASÎ MÜNASEBETLERİ	53
<i>Sena SARAÇ</i>	
XORAZMSHOH ALOVUDDIN MUHAMMADNING MUDOFAA STRATEGIYASIGA OID BA'ZI BIR MULOHAZALAR	73
<i>Umarjon XO'JAMURATOV</i>	
HARİZMŞAH ALAADDİN MUHAMMED ZAMANINDA (1200-1220) HARİZŞAHLAR DEVLETİNİ YIKIMA GÖTÜREN İÇ VE DIŞ GELİŞMELER	81
<i>Mehmet Ali ÇAKMAK</i>	
“XORAZMLIKLAR”NING SALIB YURISHLARIGA QARSHI KURASHDAGI FAOLİYATI	99
<i>Orziyev Mahmud ZAYNIYEVICH</i>	
SALIBCHILAR XORAZMLIKLAR XUSUSIDA	109
<i>Rizayev Baxtiyor NAZARBOYEVICH</i>	
MOĞOL İSTİLASINDA HÂRİZMŞAHLARIN ROLÜ	117
<i>Mevlüt GÜNLER - Asena DAĞLI</i>	
HAREZMŞAH-MOĞOL İLİŞKİLERİ VE OTRAR ÜZERİNE BAZI DÜŞÜNCELER	139
<i>Muhammet Beşir AŞAN</i>	

MOĞOLLARIN GÜRGENÇ SEFERİ	157
<i>Yasemin KAYA</i>	
TRABZON RUM DEVLETİ VE HÂREZMŞAH DEVLETİ ARASINDAKİ İLİŞKİLER	169
<i>Coşkun ERDOĞAN</i>	
“XORAZMLIKLAR” VA ULARNING MUSULMON DAVLATLARI BILAN MUNOSABATLARI	185
<i>Ergashev Jahongir YUNUS UGLI</i>	
EYYÛBÎLER İLE HÂREZMLİLER ARASINDAKİ İTTİFAKLAR VE İŞBİRLİKLERİ	195
<i>Yunus Emre AYDIN</i>	
SULTON JALOLIDDIN XORAZMSHOHNING HINDISTON HUDUDLARIDAGI FAOLİYATI XUSUSIDA	215
<i>Latipov Jasur LAZIZ O'G'LI - Shodiyeva Shahlo SOLIYEVNA</i>	
İSMAILİLER VE HARİZMŞAHLAR ARASINDA DİPLOMATİK GÖRÜŞMELER	227
<i>Ayşe Atıcı ARAYANCAN</i>	
YASSIÇİMEN SAVAŞI SONRASI SULTAN I. ALÂEDDİN KEYKUBÂD'IN HAREZMLİ POLİTİKASI	245
<i>Mahmut DEMİR245</i>	
SİBT İBNÜ'L-CEVZÎ'NİN MİRÂTÜ'Z-ZAMÂN FÎ TÂRİHİ'L-A'YÂN ADLI ESERİNDE HAREZMŞAHLAR	267
<i>Arafat YAZ</i>	
CELALEDDİN MENGÜBERDİ'NİN AKRABASI MOĞOLLARI YENEN HARZEMŞAHLI BİR MEMLÛK SULTANI KUTUZ'UN KÖKENİ HAKKINDA BAZI TESPİTLER.....	309
<i>Altan ÇETİN</i>	
KONGRATLI SOFİ HANEDANININ HAREZM HÂKİMİYETİ VE TİMURLULAR İLE MÜCADELESİ	329
<i>Ensar MACİT - Aslıhan AYDIN</i>	
YAQIN SHARQDA “XORAZMLIKLAR”NING SIYOSİY KUCH SIFATIDA TUGATILISHI VA TARIXIY TAQDIRI XUSUSIDA.....	345
<i>Majidov Jo'rabek JALILOVICH</i>	
RUSLARIN TÜRKİSTAN'I İŞGALİ DÖNEMİNDE OSMANLI DEVLETİ-BUHARA EMİRLİĞİ İLİŞKİLERİ	355
<i>Abdusselam ERTEKİN - Abdullah CENGİZ</i>	
SULTAN II. ABDÛLHAMİD DÖNEMİ TÜRKİSTAN POLİTİKALARINDA ÖZBEK HACILAR VE MUHACİRLER	385
<i>Ali Fuat ÖRENÇ</i>	